

Oiladagi Zo`Ravonliklar Va Ularning Kelib Chiqish Sabablari

Eshboyev Sharafiddin Alisher og`li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

ORCID: 0009-0005-3785-7280

Email: eshboyevsharafiddin01@gmail.com

Ilmiy rahbar: Allanova Azizaxon Avezxonovna

Toshkent davlat yuridik univertiteti Jinoyat huquqi,

Kriminologiya va korrupsiyaga qarshi

kurashish kafedrasida dotsenti, PhD.

E-mail: aziza9106@mail.ru

ORCID 0000-0002-9882-263X

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy zo`ravonlik tushunchasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo`lib, oilaviy zo`ravonlik bu oilaning bir a`zosi tomonidan ikkinchi bir a`zosiga (sobiq a`zosiga) nisbatan, uning ustidan hukmronlik o`rnatish maqsadida qilinadigan xatti-harakatlaridir. Bundan tashqari maqolada oilaviy zo`ravonlikning ko`plab turlari va ularning xususiyatlari bayon etilgan: jinsiy zo`ravonlik, jismoniy zo`ravonlik va psixologik zo`ravonlik kabi turli xil zo`ravonlik turlari haqida tushunchalar, tahlillar va misollar keltirilgan. Oilaviy zo`ravonlikning eri tomonidan ayolga qarshi jinsiy aloqalardan boshlanib, tajovuzkorning qilgan harakatlari va ularning jinoyatchilikka olib kelish mumkinligi bayon etilgan. Jismoniy zo`ravonlik esa huquqbuzarning oilaning boshqa a`zosiga nisbatan zo`rlikni o`z ichiga olgan xatti-harakatlardan iborat. Psixologik zo`ravonlik esa jabrlanuvchining psixologiyasiga ta`sir qilish va uning ustidan hukmronlik qilish bilan bog`liq. Shuningdek, maqolada dunyo bo`ylab oilaviy zo`ravonlik holatlarining og`irlik darajasi bayon etilgan va jabrlanuvchilarning ko`pchilik qismini ayollar tashkil etishi va buning asosiy sabablari bayon qilingan. Maqolada oilaviy zo`ravonlikka nisbatan jinoyat kodeksi va ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi qonunlar haqida ham ma`lumot berilgan. Shuningdek maqolada olimlarning fikrlari va amaliy tavsiyalar keltirilgan. Er-xotinlarning oiladagi tazyiq va zo`ravonlikka qarshi dunyoqarashini to`g`ri shakllantirish va ayollarga oiladagi sog`lom psixologik muhit yaratishga ko`maklashish maqsadida, oilaviy zo`ravonlikning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish usullari bayon etilgan.

Kalit so`zlar: oiladagi zo`ravonlik, jinsiy zo`ravonlik, zo`ravonlik zanjiri, qo`rquv va uyat, fohishalik, sobiq xotin, javobgarlik

Насилие В Семье И Их Причины

Эшбоев Шарафиддин Алишерович

Студент Ташкентского государственного юридического университета

Электронная почта: eshboevsharafiddin01@gmail.com

ORCID: 0009-0005-3785-7280

Научный руководитель: Алланова Азизахан Аvezхановна

Ташкентский государственный юридический университет

Уголовное право, Криминалогия и противодействие

Коррупции Доцент кафедры, к.б.н.

Электронная почта: aziza9106@mail.ru

ORCID 0000-0002-9882-263X



Аннотация: В данной статье научно анализируется понятие семейного насилия, а насилие в семье – это поведение одного члена семьи в отношении другого члена (бывшего члена) с целью установления над ним господства – действия. Кроме того, в статье описаны многие виды семейного насилия и их характеристики: даны понятия, анализ и примеры различных видов насилия, таких как сексуальное насилие, физическое насилие и психологическое насилие. Домашнее насилие описывает действия агрессора, начиная с сексуальных действий мужа против женщины, и то, как они могут привести к преступности. Физическое насилие состоит из действий, связанных с насилием со стороны правонарушителя в отношении другого члена семьи. Психологическое насилие связано с влиянием на психологию жертвы и доминированием над ней. В статье также описывается тяжесть случаев домашнего насилия во всем мире, тот факт, что большинство жертв составляют женщины, и основные причины этого. Также в статье приведены сведения об Уголовном кодексе и законах об административной ответственности за домашнее насилие. В статье также содержатся мнения ученых и практические рекомендации. Чтобы правильно сформировать мировоззрение супругов против угнетения и насилия в семье и помочь женщинам создать здоровую психологическую среду в семье, описаны причины семейного насилия и методы их предотвращения.

Ключевые слова: домашнее насилие, сексуальное насилие, цепочка насилия, страх и стыд, проституция, бывшая жена, ответственность.

Family Violence And Their Causes

Eshboev Sharafiddin

Student of Tashkent State university of Law

Email: eshboyevsharafiddin01@gmail.com

ORCID: 0009-0005-3785-7280

Scientific supervisor: Allanova Azizakhan Avezkhanovna

Professor of department of criminal law, criminology and anti-corruption

Tashkent State University of Law,

Doctor of Philosophy

Email: aziza9106@mail.ru

ORCID 0000-0002-9882-263X

Abstract: In this article, the concept of family violence is scientifically analyzed, and family violence is the behavior of one member of the family against another member (former member) in order to establish dominance over him. - actions. In addition, the article describes many types of family violence and their characteristics: concepts, analyzes and examples of different types of violence such as sexual violence, physical violence and psychological violence are given. Domestic violence describes the actions of the aggressor, starting with sexual acts against the woman by the husband, and how they can lead to criminality. Physical violence consists of acts involving violence by the offender against another member of the family. Psychological abuse is related to influencing and dominating the victim's psychology. The article also describes the severity of domestic violence cases around the world and the fact that the majority of victims are women and the main reasons for this. The article also provides information on the criminal code and laws on administrative responsibility in relation to domestic violence. The article also contains the opinions of scientists and practical recommendations. In order to correctly form the worldview of spouses against oppression and violence in the family and to help women create a healthy psychological environment in the family, the causes of family violence and their prevention methods are described.



Key words: domestic violence, sexual violence, chain of violence, fear and shame, prostitution, ex-wife, responsibility

Kirish. Zo`ravonlik tushunchasi judayam keng tushuncha va uning ko`plab turlari mavjud. Zo`ravonlik bu bir shaxs tomonidan ikkinchi bir shaxsning erkiga qarshi ma`lum bir xatti-harakatlarni bajarishga majbur qilishdir. Hozirgi zamonaviy dunyoda oilaviy zo`ravonlik judayam keng tarqalgan. Oilaviy zo`ravonlik bu oilaning bir a`zosi tomonidan ikkinchi bir a`zosiga yoki oilaning sobiq a`zosiga nisbatan, uning ustidan nazorat o`rnatish maqsadida qilinadigan xatti-harakatlardir. Uning judayam ko`plab turlari mavjud - jinsiy zo`ravonlik, jismoniy zo`ravonlik va psixologik zo`ravonlik kabi va ular dunyodagi global muammolardan biri hisoblanadi. Zo`ravonlik nafaqat jismoniy shikastlanishga olib keladi, balki jabrlanuvchining, jinoyatchining va butun jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma`naviy va hissiy holatiga putur yetkazadi. Oiladagi zo`ravonlik ayollarning sog`lig`ining yomonlashishiga katta hissa qo`shmoqda.

Jinsiy zo`ravonlik deganda ko`pincha eri tomonidan ayolga nisbatan rozilik olinmasdan jinsiy aloqa qilish tushuniladi va ayolning qarshiligi yengib o`tiladi. Agarda jinsiy zo`ravonlikda eri tomonidan ayoli bilan ayolining roziligi olinmasdan jinsiy aloqa qilsa va unga zo`rlik ishlatilsa, ushbu xatti-harakatlar jinoyatga aylanib ketishi mumkin va bu uchun jinoyi javobgarlik belgilab qo`yilgan.

Jismoniy zo`ravonlik esa bu oilaning a`zosi tomonidan uning boshqa bir a`zosiga nisbatan zo`rlik, kuch ishlatish tushuniladi. Oila ichida jabrlanuvchining sog`lig`iga zarar yetkazish va uni muntazam qiynashda ham namoyon bo`lishi mumkin. Jismoniy zo`ravonlikka uchragan ayolar ko`pincha ushbu xatti-harakatlarni jinoyat deb hisoblamaydilar va erining ushbu harakatlariga qarshi chiqishmaydi.

Psixologik zo`ravonlik bu jabrlanuvchining psixologiyasiga ta`sir o`tkaziladi va bu orqali tajovuzchi shaxs jabrlanuvchining ustidan hukmronlik qiladi. Psixologik zo`ravonlikning quyidagi belgilari namoyon bo`lishi mumkin: doimiy haqorat qilish, doimiy tanqid qilish va boshqalar.

Material va metodlar. Tadqiqotda oilaviy zo`ravonlik bo`yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo`llanildi

Tadqiqot natijalari. Keng ma`noda oiladagi zo`ravonlik bolalar, ota-onalar yoki qariyalarga nisbatan zo`ravonlikni ham o`z ichiga oladi. U bir nechta shakllarni o`z ichiga olishi mumkin: jismoniy, og`zaki, hissiy, iqtisodiy, diniy, reproduktiv yoki jinsiy zo`ravonlik kabi. Bu eng oddiy zo`rlash shakllaridan tortib, nikoh davrida zo`rlash va boshqa zo`ravonlik shakllari, shuningdek, jismoniy zo`ravonlikgacha bo`lishi mumkin, Misol tariqasida bo`g`ish, kaltaklash, ayollarning jinsiy a`zolarini kesish va kislota tashlash kabi zararlashi yoki o`limga sabab bo`lishi mumkin bo`lgan va insonni nazorat qilish uchun buyumdan foydalanishni o`z ichiga oladi. Masalan: tayoq [1], toshbo`ron qilish, kelinni yoqish, nomus uchun o`ldirish va ba`zan birga yashamaydigan oila a`zolarining zo`ravonligini o`z ichiga oladi.

Og`zaki va psixologik zo`ravonlikning ko`p shakllari dastlab nisbatan zararsiz bo`lib ko`rinadi, lekin vaqt o`tishi bilan kengayib boradi va ko`proq tahdid soladi, ba`zan asta-sekin va nozik. Jabrlanuvchilar haqoratli xatti-harakatlarga moslashgani sayin, og`zaki yoki psixologik taktikalar jabrlanuvchilar ongida kuchli "o`rin egallashi" mumkin va vaqt o`tishi bilan ularga zo`ravonlikning jiddiyligini tan olishni qiyinlashtiradi [2]. Bu ayollarning ruhiy va jismoniy salomatligiga, jumladan, reproduktiv va jinsiy salomatligiga jiddiy oqibatlariga olib keladi. Bularga jarohatlar, ginekologik muammolar, vaqtinchalik yoki doimiy nogironlik, depressiya va o`z joniga qasd qilish va boshqalar kiradi.



Dunyo bo'ylab oiladagi zo'ravonlik qurbonlari ko'pchiligini afsuski, ayollar tashkil qiladi va ayollar zo'ravonlikning yanada og'ir shakllarini boshdan kechirishmoqda.

Bu borada tadqiqotlar olib brogan olimlarning fikriga qaraydigan bo'lsak, rus olimi S. Pashenko oiladagi zo'ravonlik deganda, oila a'zolariga nisbatan qo'llangan, ularni o'zlari uchun nomaqbul xatti-harakatlar qilishga majburlash uchun tahdid yoki jazolash sifatida og'riq yetkazish, norozilik, jismoniy cheklov (cheklash)ni keltirib chiqaruvchi jismoniy yoki ruhiy kuch ishlatib, ularning irodasiga qarshi qo'llanilgan noqonuniy xatti-harakatni nazarda tutadi [3].

“Oiladagi zo'ravonlik shunchaki tortishuv emas. Bu bir kishi boshqasiga nisbatan amalga oshiradigan majburiy nazorat namunasidir. Zo'ravonlar jismoniy va jinsiy zo'ravonlik, tahdid, hissiy haqorat va iqtisodiy zo'ravonlikdan o'z qurbonlari ustidan hukmronlik qilish va o'z yo'lini topish uchun foydalanadilar”. (Syuzan Scheter, oilaviy zo'ravonlikka barham berish harakatining rahbari [2]).

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan BMTning ayollarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha idoralararo ishchi guruhi tomonidan 2000-2018 yillardagi 161 mamlakat va hududlarda o'tkazilgan. 2018-yildagi ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, har 3 nafar ayoldan 1 tasi yoki ayollarning 30 foizi hayotining bir qismida oiladagi zo'ravonlikka - yaqin sherik yoki sherik bo'lmagan jinsiy zo'ravonlik yoki ikkalasi tomonidan jismoniy va/yoki jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lgan [4]).

O'zaro munosabatlarda bo'lgan 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan ayollarning chorak qismidan ko'prog'i umri davomida kamida bir marta (15 yoshdan boshlab) yaqin sherigi tomonidan jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lgan. Turmush o'rtoqlar o'rtasida umr bo'yi zo'ravonlikning tarqalishi Tinch okeanining g'arbiy qismida 20%, yuqori daromadli mamlakatlar va Yevropada 22% va JSSTning Amerika mintaqalarida 25%, JSST Afrika mintaqasida 33%, JSSTda 31%. Sharqiy O'rta Yer dengizi mintaqasi va 33% JSST Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida [5].

Dunyo miqyosida ayollar o'ldirilishining 38 foizi yaqin sheriklar tomonidan sodir etilgan. Intim sherigi zo'ravonligiga qo'shimcha ravishda, dunyo miqyosida ayollarning 6 foizi sherigidan boshqa birov tomonidan jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lganliklarini aytishadi, garchi sherik bo'lmagan jinsiy zo'ravonlik haqidagi ma'lumotlar ancha cheklangan. Intim sherik va jinsiy zo'ravonlik asosan erkaklar tomonidan ayollarga nisbatan amalga oshiriladi [5].

Tadqiqot natijalari tahlili. Oiladagi zo'ravonlikka nisbatan davlatlarning qarashlari har xil. Ba'zi mamlakatlarda oiladagi zo'ravonlik asosli yoki qonuniy deb qaralishi mumkin, bunga sabab ayniqsa ayol tomonidan haqiqiy yoki gumon qilingan xiyonat ro'y berishi holatlari. Ya'ni ayol tomonidan eriga nisbatan xiyonat qilingan va ushbu vaziyatda u eri tomonidan qo'llaniladigan jazoga loyiq deb hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mamlakatdagi gender tengligi darajasi va oiladagi zo'ravonlik darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va sezilarli bog'liqlik mavjud. Bu shundan dalolat beradiki, gender tengligi kamroq bo'lgan mamlakatlarda oiladagi zo'ravonlik ko'proq sodir bo'ladi.

Jahon tajribasiga qaraydigan bo'lsak, 2015-yilda Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi oiladagi zo'ravonlik ta'rifini nazoratni o'z ichiga olgan holda majburiy tarzda kengaytirgan [6].

Oiladagi zo'ravonlik ko'pincha zo'ravon ular bunga haqli deb hisoblaganda yoki bu maqbul, asosli yoki xabar qilinishi imkonsiz deb hisoblaganda sodir etiladi. Bu bolalar va boshqa oila a'zolarida avlodlararo zo'ravonlik zanjirini keltirib chiqarishi mumkin, ular bunday zo'ravonlikni maqbul yoki ma'qul degan fikrga ega bo'lib qolishlari mumkin. Ko'p odamlar o'zlarini zo'ravon yoki qurbon deb bilishmaydi, chunki ular o'zlarining tajribalarini nazoratdan chiqib ketgan oilaviy nizolar deb hisoblashlari mumkin [7]. Oiladagi zo'ravonlikdan xabardorlik, idrok etish, ta'riflash va hujjatlashtirish turli mamlakatlarda juda farq qiladi.



Bundan tashqari, oiladagi zo'ravonlik ko'pincha majburiy yoki yosh nikohlar orasida sodir bo'ladi.

Oiladagi zo'ravonlik butun dunyo bo'ylab erkaklar va ayollar uchun eng kam qayd etilgan jinoyatlardan biridir.

Xorijiy tajribani ko'rib chiqadigan bo'lsak, Shimoliy Hindistonda jinsiy zo'ravonlik judayam ko'p uchraydi. Shuning uchun jinsiy zo'ravonlikka uchragan ayollar va jinsiy zo'ravonlikka uchramagan ayolar o'zaro solishtirib ko'rilganda natijalar shuni ko'rsatdiki: zo'ravon erkaklar qo'shimcha jinsiy aloqada bo'lishlari sababli, jinsiy zo'ravonlikka uchragan ayollarda jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar ko'rsatkichi ancha yuqori [8].

L. Berkovetsning fikricha, oiladagi tajovuzkorlik va zo'ravonlikning namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning, ayniqsa, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarning ta'siri katta. Er-xotinning oilada yetakchi o'rinni egallashi va o'z vazifasini to'g'ri bajara olishi ham muhim. Ya'ni er-xotinning oiladagi o'rni ham zo'ravonlikka uchrashiga sabab bo'lishi mumkin.

Ba'zi oilalardagi munosabatlarda zo'ravonlik ma'lum bir davr mobaynida sodir bo'lishi mumkin, aynan o'sha paytda keskinliklar kuchayadi va zo'ravonlik harakati sodir bo'ladi, keyin yarashuv va xotirjamlik davri keladi. Bunga ikkita sabab mavjud:


*Birinchi*dan, Jabrlanuvchilar kuch va nazorat, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, qo'rquv va uyat yoki bolalarni himoya qilish orqali ushbu tuzoqqa tushadi. Ya'ni oiladagi zo'ravonliklarni yuqoridagi sabablar tufayli o'zlariga nisbatan nohaqlik deb hisoblamaydi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaydi;

*Ikkinchi*dan, jabrlanuvchi ayollar har doim ham jismoniy, ham hissiy jihatdan turmush o'rtog'iga chuqur bog'liqdir. Shuning uchun, bir muncha vaqt o'tgach, u oilaga qaytadi. Odatda asosiy sabab - boshqa yashash joyining yo'qligi, shoshilib qochish ya'ni hujjatlarsiz va boshqa shaxsiy buyumlarsiz, yangi hayot boshlashdan qo'rqish, tajovuzkor o'zini tuzatishiga umid qilishadi. Buni birdaniga amalga oshirib bo'lmaydi. Zolimga u bilan bo'lishni xohlayotganini bildirish havfli. Lekin birga yashash ham ko'p hollarda yomon yakun topadi. Ayollarga nisbatan zo'ravonliklarning eng ko'p uchraydigan shakllariga ularni birga yashashga, fohishalik qilishiga majburlash, nomusiga tegish, spirtli ichimlik, giyohvandlik moddalar iste'mol qildirish, muntazam xo'rlash va ruhiy ta'sir ko'rsatish, bu er - xotinlardan birining, hatto undan ham yomoni, bolalarning o'ldirilishi yoki nogironligi bilan tugaydi.

O'zbekistonda 2021-yilning birinchi yarmi davomida qariyb 18 ming nafar ayol tazyiqqa uchragani aniqlangan. Ulardan 9 ming nafari ruhiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich 2020-yilning mos davriga nisbatan 2,5 baravar, yoki 5 ming nafarga ko'p miqdorni keltirib chiqaradi. Ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar jamoatchilik kengashi hamda Gender tengligi masalalari bo'yicha komissiyaning kengaytirilgan yig'ilishda Senat raisi Tanzila Norboyeva alohida ta'kidlab o'tgan.

Respublikada ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida va ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, 2019-yilning 2-sentabr sanasida amal qilish muddatini boshlagan O'RQ-561-sonli „Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish“ to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va 2019-yil 2-sentabrdagi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi 562-sonli Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi „Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ 87-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi „Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ gi 145-son qarorlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi boshchiligidagi hamda BMTning Aholishunoslik jamg'armasi ko'magida Reabilitatsiya va



moslashtirish respublika markazi tomonidan aholi o'rtasida maxsus onlayn-anonim so'rovnomaga o'tkazilgan. O'tkazilgan so'rovnomada ovoz bergan respondentlarning 42 foizi ayollar o'zlari va farzandlarini boqa olmasligidan qo'rqib zo'ravonlikka chidashlarini, shuningdek 38 foiz ayollar boshqalar tomonidan muhokama (gap-so'z) bo'lishdan qo'rqib zo'ravonlikka ko'z yumishlari kabi sabablarni keltirishgan.

O'zbekiston Respublikasida oilaviy zo'ravonliklar yildan yilga oshib borganligi uchun jinoyat kodeksiga oilaviy zo'ravonlikni nazarda tutgan, ayollar va bolalarning huquqlari himoyasini oshirish uchun bir qancha yangi moddalar qo'shildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ushbu qonun loyihasi 2023-yil 11-aprelda imzolandi va unga ko'ra, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga 59-2-modda va Jinoyat kodeksiga 126-1-modda Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik qo'shildi. Jinoyat kodeksi 126-1-moddaga ko'ra, Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo'lmasa ushbu moddaga binoan javobgarlikka tortiladi. Bu shundan dalolat beradiki, endi oiladagi zo'ravonlik holatlari ya'ni erining xotiniga yoki sobiq xotiniga va oilaning boshqa a'zolariga zo'ravonlik qilgan holatlari endi faqatgina oilaviy muammo emas, balki jinoyat darajasiga ko'tarildi va buning uchun javobgarlik belgilandi.


Ma'lum qilinishicha, 2023 yilning 12 aprel kunidan yil oxirigacha Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi bilan 203 nafar shaxs sudlanib, ularning 59 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 144 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlangan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59-2-moddasi bilan esa 8 928 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Ularning 5 229 nafariga jarima jazosi, 3 699 nafariga ma'muriy qamoq jazosi qo'llangan.

Xulosa. Oilaviy zo'ravonlikka duchor bo'lgan ayollarning aksariyati o'z oilasida shunday ahamiyatsiz rol o'ynaganki, ular o'z oilalarida qaror qabul qilishga deyarli ta'sir ko'rsatmagan. Jismoniy zo'ravonlikka ko'proq qishloq ayollari, ta'lim darajasi past bo'lgan ayollar, oliy ma'lumoti yo'q ayollar, kam daromadli ayollar duchor bo'ladilar. Ularda huquqiy madaniyat va huquqiy ong yaxshi rivojlanmagan va ular erining ushbu xatti-harakatlarini o'zlariga nisbatan jinoyat deb hisoblamaydi. Eri tomonidan o'ziga nisbatan qilinayotgan zo'ravonlik xatti-harakatlariga eri haqli deb o'ylaydi va hech qanday qarshilik qilmaydi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaydi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 11-aprel kuni oilaviy (maishiy) zo'ravonlikni nazarda tutuvchi qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 126-1-modda bilan va O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga esa 59-2-modda bilan kiritilgan. Shuning uchun ham oiladagi zo'ravonliklarni kamaytirish va oldini olish uchun oilaviy zo'ravonlik namunalarini tan olish va ularga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirishimiz zarur. Ya'ni zo'ravonlikka uchragan ayollarga huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etishlari uchun sharoit yaratishimiz va er-xotinlarga oilaviy zo'ravonlik bu oiladagi ichki muammo emas, balki boshqa bir shaxsning huquqlarini buzish ya'ni jinoyat ekanligini tushuntirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Woodlock, Delanie (2017). "The abuse of Technology in Domestic Violence and Stalking (en). *Violence Against Women*



2. 7. *National center on elder abuse*. Washington DC: 2005. Fact Sheet: Domestic violence: Older women can be victims too.
3. Пащенко А.С. Понятие домашнего насилия // Теория и практика общественного развития. – 2005. – № 1. – С. 46–48.
4. Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning tarqalishi taxminlari, 2018. Ayollarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning global, mintaqaviy va milliy tarqalishi taxminlari va sherik bo'lmagan ayollarga nisbatan jinsiy zo'ravonlikning global va mintaqaviy tarqalishi taxminlari. JSST: Jeneva, 2021 yil
5. Violence Against Women Prevalence Estimates, 2018
6. Controlling or Coercive Behaviour in an Intimate or Family Relationship Statutory Guidance Framework
7. Halket, Megan Mcpherson; Gormley, Katelyn; Mello, Nicole; Rosenthal, Lori; Mirkin, Marsha Pravder (2013). "Stay with or Leave the Abuser? The Effects of Domestic Violence Victim's Decision on Attributions Made by Young Adults". *Journal of Family Violence* 29: 35–49
8. Stephenson R, Koenig MA, Axmed S. Shimoliy Hindistondagi ayollar o'rtasida oilaviy zo'ravonlik va ginekologik kasallik belgilari. *Int Fam rejasi istiqboli*. 2006; 32 :201–8.
9. Enikolopov S.N. Oilaviy zo'ravonlik muammolari // Amaliy psixologiya. - 2002. - № 5/6
10. Halket, Megan Mcpherson; Gormley, Katelyn; Mello, Nicole; Rosenthal, Lori; Mirkin, Marsha Pravder (2013).
11. Enikolopov S.N. Oilaviy zo'ravonlik muammolari // Amaliy psixologiya. - 2002. - № 5/6
12. Asanova M. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar / Ed. N.K.: Vlados, 2007.- S. 218 ..
13. Perttu S. Zo'ravonlikka duch kelgan ayollar uchun qo'llanma /. - Jivaskila: Gummerus, 2010. - S. 6-7 .
14. Majidova D. A., Mamaraimov Z. Sh... Oila sog'lom dunyoqarashni shakllantirishning muhim omili sifatida. *Yosh olim*, – 2013, – 5-son.
15. Pashchenko A. S. Oiladagi zo'ravonlik tushunchasi // Ijtimoiy rivojlanish nazariyasi va amaliyoti. – 2005. – 1-son.
16. Агапов Е. П. Семейведение. – Москва: Изд-во “Дашков и К”, 2012. – 400 с.